

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ALLA QO‘SHIQLARIDA MEHR-MUHABBAT TUYG‘ULARI TARANNUMI

Saburova Qunduz Erkebay qizi

Nukus davlat pedagogika instituti

O‘zbek adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadriyatlarimizning gultoji bo‘lgan, dastlabki qo‘shiq onalarimiz allasi haqida so‘z yuritiladi. Allaning xalq og‘zaki ijodidagi namunalari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *alla, orzu-umid, tarbiya, ruhiyat, xalq qo‘shigi, kuy*

Аннотация: Эта статья о первой песне наших матерей, которые являются колыбелью наших ценностей. Анализируются примеры колыбельны в фольклоре.

Ключевые слова: *Колыбельная, надежда, воспитание, духовный, народ, песня, мелодия*

Annotation: This article is about the first song of our mothers, who are the cradle of our values. Lullaby's examples in folklore are analyzed.

Keywords: *lullaby, hope, education, spirituality, folk song, melody*

O‘zbek folklorshunosligida xalq qo‘shiqlari, jumladan, allalarni yozib olish, to‘plash va o‘rganish borasida samarali ishlar amalga oshirilgan. Bu borada O.Safarov, H.Razzoqov, M.Alaviya, M.Jo‘rayev, M.Chorshanbiyevlarning tadqiqot ishlari alla ijrosi va uning tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganishga muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Biroq xalqimiz orasida hali ham yozib olinishi zarur bo‘lgan alla namunalari ko‘plab topiladi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxiatoş tumanida ijro etiladigan alla qo‘shiqlari bugungi kunda ham og‘zaki ijod namunasi shaklida yashab kelayotgan, yosh avlod ma‘naviy-ruhiy dunyosi tarbiyasida faol qo‘llanilmoqda.

Jumladan, 1972-yil tug‘ilgan, Taxiatoş tumani Nurli kelajak mahallasida istiqomat qiluvchi Roza Eshnazarovadan yozib olingan quyidagi alla o‘zining ijro uslubi, muayyan ritmgaga egaligi hamda so‘zlari bilan farqlanib turadi:

Alla, alla, allasinay,

Olloning bergan balasinay.

Aynalayin aylardan,

Suv alayin saylardan.

Alla aytsam o‘zina

Uyqilar kelgay ko‘zina.

Aynalayin aymarqam,

Beshikdagi taymarqam

Taxiatoş tumani etnik jihatdan o‘zbek va qoraqalpoq xalq vakillari aralash holda yashaydigan hudud bo‘lganligi uchun ham bu yerda ijro etiladigan folklor namunalari qadimiy umumturkiy so‘zlar, o‘ziga xos sheva birliklari juda ko‘p qo‘llaniladi. Xususan, erkalatish ma‘nosida qo‘llanilgan „aymarqa“ va „taymarqa“ so‘zlarga tarkibida kelayotgan „marqa“ so‘zi xususida ham shunday fikrni bildirish mumkin. Mazkur so‘z xalq orasida “pahlavon, botir” degan ma‘nolarini anglatadi. Shuningdek, xalqimizda qo‘ylar qo‘zilayotganda tug‘ilgan bolalarga ham Marqatay, Marqabay ismlari qo‘yilgan.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Odatda allalarda beshik yoki belanchakning maqtovi aytiladi, hayvon va qushlarga qiyoslanadi. Bu borada folklorshunos O.Safarov shunday ta’kidlaydi: “O‘zbek allalarida hayvonlarning bolalari va qushlar nomi bilan aloqador erkalash ohangi bor: bolalar qo‘zichoqqa, toychoqqa, toyloq yoki bo‘taloqqa, bulbulga, suqsurga, lochinga qiyoslanib, e‘zozlanadi. Bunday qiyoslash aslida o‘sha jonivorlarga bo‘lgan samimiy munosabat zamirida tabiiylik kasb etgan” [2:140]. Fikrimizcha, bu holat totemlar bilan bog‘liq qadimiy dunyoqarash mahsuli sifatida hozirgacha saqlanib kelayotgan tafakkur tarzining bir qismidir.

Onalardan yaralgan mehr torlari har bir bola qalbida o‘zgacha iz qoldiradi. U oila a‘zolariga nisbatan iliq so‘zlar, muhabbat, hamjihatlik, adolatli bo‘lishni o‘rgatadi. Ona Vatanga muhabbat tuyg‘usini, yaqinlariga oqibatli, sadoqatli inson bo‘lib ulg‘ayishiga yordam beradi. Masalan, 1958-yilda tug‘ilgan, 66 yoshli Ayjigul Ashirovadan yozib olingan quyidagi alla namunasida ham volida mehri, e‘tibori, farzand bilan bog‘liq xavotirlari aks etgan:

Ayda ayda, aydasi,
Alla bergen balasi.
Alla aytti alsin dep,
Suyip miyri qansin dep.

Ayda bala qaydaken?
Qizlar menen toydaken.
To‘yda bo‘lsa to‘ylasin
O‘ramalin jo‘ymasın.

E‘tibor bersak, allalarimizda ko‘pincha onalarning o‘sha paytdagi ruhiy holati, kechinmalari aks etadi. Keltirilgan jumlar ham vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Folklorshunos M.Alaviya alla tuzilishi haqida shunday fikr bildirgan edi: “Alla, asosan, to‘rtlikdan tashkil topgan bo‘lsa ham, ba‘zi allalovchi to‘lqinlanib ketsa davom ettirib, boshqa misralarni ham qo‘shib yuboradi va bir-biriga yaqin to‘rtliklarni aytib, bu bilan o‘zining tilak, armonini izhor etadi” [1:132]. Jumladan, Taxiatosh tumani Shamchiroq mahallasida istiqomat qiluvchi 1962-yil tug‘ilgan, 62 yoshli Lola Naranovadan yozib olingan parchada ham farzand kelajagi, uning “oq” – nurli va qora kunlardan yiroq bo‘lishi, to‘la-to‘kis hayot kechirishiga tilagi kabi ezgu niyati, ishonchi gavdalanadi:

Alla balam, aq balam,
Aq beshikda jat balam.
Atang kelip qo‘y soysa,
Go‘sh pishganча jat balam.
Aynanayın balamnan,
Tovup aldım daladan.
Dalada bala bo‘lama?
Sorap aldım Ollodan

So‘z inson ruhiyatiga eng kuchli ta’sir etuvchi omil bo‘lsa, kuy ham shunday xususiyatga egadir. Bola uchun musiqiy tarbiya zarurligi ilmiy jihatdan ham

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

isbotlangan. Zotan, M.Yoqubbekova ta’kidlaganidek, “dunyoning barcha xalqlarida mavjud bo‘lgan bu qo‘shiqni bir tuyg‘u – onaning farzandiga bo‘lgan muhabbati tuyg‘usi birlashtirib turadi. Onalar, buvilar tomonidan alla kuylash vositasida farzandlar ma’naviyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish barkamol avlod tarbiyasining muhim omilidir” [3: 4].

Umuman, allalar har bir joyda o‘ziga xos uslubda ijro etiladi. Onaning o‘z so‘zida, ohangida mehr bilan tarannum etiladi. Avvalgi dard, alam, hasratli allalar o‘rnini hozirgi kunga kelib tinch, farovon, obod turmushimizni aks ettiruvchi so‘zlar bilan kuylanuvchi allalar egallagan. Jannatmakon yurtimizda baxtiyor ona va baxt iqboli yor bo‘lgan O‘zbekistonimizni madh etuvchi allalar yaratilmoqda. Biroq jonli ravishda ijro qilinadigan, har bir onaning tilida g‘oyibdan paydo bo‘luvchi ilohiy ilhom so‘zlar sifatida jaranglaydigan mehr qo‘shiqlari odamzod bor ekan yashashda, uning dard-u alamini, quvonch-u shodligini namoyon etishda davom etaveradi.

Adabiyotlar:

1. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – Toshkent: Fan, 1976. – B.132
2. Safarov O. Allayo-alla. – Toshkent, 1999. – B. 140.
3. Yoqubbekova M. Alla – jonning rohati. – Toshkent, 2010. – B. 4
4. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. 2-нашри. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.